

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI

# KURS ISHI

MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR  
SHAJARASI

Topshirdi: Batirova D.  
Qabul qildi: Abduqayumov A.

TOSHKENT-2013

## **MUNDARIJA:**

**Kirish.**

**I bob. Sohibqiron Amir Temur Kuragoniyning faoliyati va janglari.**

**1-§. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi.**

**2-§. Amir Temur davlatining tashkil topishi.**

**II bob. Temuriylar shajarasi.**

**1-§. Amir Temurning harami.**

**2-§. Amir Temur farzandlari.**

**Xulosa.**

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.**

**Ilova.**

## **Kirish**

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda Temur va temuriylar davrini mufassal o'rganmay turib bu mintaqaning tarixiga baho berish mumkin emas. Zero, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temur va temuriylar davri mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida ulkan ijobiy burilishlar davri bo'lgan.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, Movarounnahr hududida qanchadan – qancha asrlarga tatigulik voqeya va hodisalar bo'lib o'tgan. Ammo mustabid tuzum vaqtida o'z tariximizga bo'lgan e'tibor sust kechgan davrdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'z tariximizni qayta o'rganish jadallik bilan boshlab yuborildi. Xususan o'sha mutabid yillarida “qonxo'r”, “jallod”, “yo'lto'sar” deb xalq ongiga uqtirilgan. Sohibqiron Amir Temurning qanday shaxs ekanligini nafaqat bizni olimlar, balki butun dunyo olimlari isbotlab berdilar.

Binobarin, qariyb 500 yil hukumronlik qilgan temuriylar sulolasi xususida esa, jahon adabiyotida ilmiy asarlar, romanlar hamda sahna asarlari yaratilib kelindi va yaratilmoqda. Shuningdek, jahon olimlari tomonidan temuriylar sulolasining shajarasi ingliz, fransuz va nemis tillarida yozilgan va nashr qilingan. Bizda esa Temur shaxsiga va uning avlodiga nisbatan “bosqinchi”, “qonxo'r” va “jallod” kabi iboralar bilan tamg'a bosib, xalq nazaridan chetlab kelindi. Holbuki, Sohibqiron Amir Temur haqidagi qo'lyozma manbalarni chuqurroq tahlil qilinsa, uning “bosqinchilik” harbiy yurishlarining tub mohiyati nimadan iborat ekanligi bir qadar oydinlashadi. Zotan, Amir Temur Movarounnahrda yirik markazlashgan davlatni barpo etgach, endilikda butun kuch-g'ayratini turkiy xalqlarni birlashtirishga, ya'ni Turk hoqonligi (552 745) davridagi turk xalqining mavqye'ini qayta tiklab, Ulug' Turon davlatini barpo etishga qaratgan edi.

Amir Temurga xos bo‘lgan qator fazilatlar ichida ilm ahliga ehtirom va g‘amxo‘rlik alohida ajralib turadi. Mustaqillik yillarida biz ulug‘ bobomizning xotirasiga munosib ehtirom ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ldik. Turon xalqining eng yorqin davrlaridan biri, shak-shubhasiz, Amir Temur nomi bilan bog‘liqdir. Yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zlarida xalqimizning ulug‘ davlat arbobi Amir Temur xotirasiga bo‘lgan munosabati mujassamlashgan: “Amir Temur shaxsini idrok etish tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash o‘zimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug‘lash tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir”<sup>1</sup>.

Ko‘p ming yillik tariximiz juda ko‘p sulolalarni boshdan kechirdi. Lekin o‘zidan katta yodgorlik qoldirgan va ko‘p yillar hukm surgan sulola bu-temuriylar sulolasi bo‘ldi. Bu sulola vakillari Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Afg‘oniston va Hindistonni 288 yil (1370-1506; 1526-1858 yillari) idora qildilar, o‘sha mamlakat xalqlari tarixida sezilarli iz qoldirdilar.

---

<sup>1</sup> И.А.Каримов, Амир Темур хақида сўз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996, 34-б.

## **I bob. Sohibqiron Amir Temur Kuragoniyning faoliyati va janglari.**

### **1-§. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi.**

XIV asr o'rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo'rlari taxt, hokimiyat uchun o'zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib Sharqiy Turkiston yerlarida Mo'g'liston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chig'atoy avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardanoq o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

**Amir Temur** Shahrizabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida Barlos beklaridan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336 yil 8 aprelda (hijriy 736 yil 25 sha'bon seshanba) dunyoga kelgan. Uning otasi Tarag'ay bahodir Qashqadaryo vodiysidagi barlos urug'ining boshlig'i bo'lib, Xoja ilg'or qishlog'idan edi. Onasi esa Takina Moh begim bo'lgan.

Amir Muhammad Tarag'ay avvalo komil musulmon va bahodir jangchi bo'lgan. U o'z zamonasining obro'li, e'tiborli, ziyoli o'ziga to'q shaxslaridan bo'lgani uchun Temur yoshligida oilasida yaxshi ta'lim va tarbiya ko'rgan. Ko'pchilik adabiyotlarda ataylab uni "savodsiz", faqat "qonxo'r", "zolim" shoh sifatida tasvirlanishi haqiqatga to'g'ri kelmaydi<sup>2</sup>.

Amir Temur 12 yoshidan boshlab bolalarga xos bo'lgan ermak o'yinlardan voz kechib, sipohiylikka oid o'yinlar bilan shug'ullandi.

Temur 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va shikor qilish san'atini mohirona egallaydi va 20 yoshida esa abjir chavandoz bo'lib yetishadi. Endi u o'z tengqurlarini guruhlarga bo'lib, jang mashqlarini o'tkaza boshlaydi.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Якубовский А. Темур. Вопросы истории. 1946. № 8-9. с. 42-74.

<sup>1</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 14-15 б.

Amir Temurning amakisi hoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361 yillarda Tug'luq Temur hych qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarliq milliy g'urur va iftixor hissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'liga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqliq o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi mug'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug'luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq to'zadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralanib bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363 yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. Shu munosabat bilan Amir Temur va Tug'luq Temur vafotidan so'ng Movarounnahrdan haydalgan Amir Husaynning birlashgan qo'shinlari 1365 yilda Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oralig'ida bo'lgan mashhur «loy jangi» ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqyealardan so'ng Amir Husayn va Amir

Temur o'rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g'alabaga erishgan Ilyosxo'ja uchun Movarounnahrda keng yo'l ochilgan edi.

U katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalari ko'rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo'ladilar.

Movarounnahrda mo'g'ullar ustidan qozonilgan g'alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrda yo'l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o'zaro urushlardan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o'zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nihoyatda zarur edi. Buni birinchi bo'lib anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib 1370 yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi.<sup>4</sup>

Vatan haqida qayg'urish, Vatan mustaqilligini tiklash haqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

Biroq mamlakatda ahvol og'ir edi. Movarounnahr hududi hali mo'g'ul istilochilaridan batamom xalos bo'lmagan, qashshoqlikka mahkum etilgan mehnatkash xalq og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Amir Temur taxtga o'tirgach, birinchi harakatni mamlakatni mo'g'ul istilochilaridan ozod qilib, mustaqil markazlashgan

---

<sup>1</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 21-23 б.

davlatni barpo qilishga qaratdi. Mamlakatni boshqarishda yangi va mukammal tartib qoidalar joriy qildi.

1370 yildayoq Amir Temur Samarqand shahar devorini qurdirishga kirishadi. Shuningdek, qo'rg'on va saroylar bino qildiradi. Bu qurilishlar mo'g'ullar istilosidan 150 yil keyingi birinchi qurilishlar edi.



## **2-§. Amir Temur davlatining tashkil topishi.**

Amir Temur O'rta Osiyoda markazlashgan davlat tashkil qilishda, ma'rifat ishlarini rivojlantirishda katta rol o'ynadi<sup>5</sup>.

Temur o'z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko'chib o'tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron aniq, muloxazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va o'zoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo'lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug'lari tashkil etgan yengilmas va jangovor milliy qo'shin to'zadi, ularga katta imtiyozlar beradi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o'z qo'shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, ya'ni qo'shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e'tibor bergan. U qo'shinlarini o'nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo'lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayru ehson ko'rsatish, boshga og'ir kunlar tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo'shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o'z davlatining poydevori bo'lgan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u

---

<sup>1</sup> Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихидаги ўрни ва роли ҳақида. Т., 1960, 14 б.

Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni o'z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388 yilda uni butunlay bo'ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan sufiylar sulolasini tugatadi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko'p sonli qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Oltin O'rda hududini egallaydi. Temurning bu g'alabasi Oltin O'rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo'shinlarining Volga daryosi bo'ylarida bemalol yurishlariga ham keng yo'l ochdi. Ta'kidlash joizki, Temurning bu g'alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida g'alaba va Bayrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratdi. Bu g'alaba bilan Temur yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga surib yubordi.

Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko'radi. Shubhasiz, Temur bu yurish uchun o'zoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yillar davomida to'plagan edi. 1404 yilda Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo'shinlari 1405 yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo'lgan chegara shahar O'tror shahrida to'xtaydilar va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi. Vafotidan oldin o'g'ilariga shunday vasiyat qiladi:

“O'g'illarim!

Millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tadbiqu eting.

Millatning dardiga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va Ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsun. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko‘rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz tosh boshingizga tushmas...”<sup>6</sup>.

---

<sup>1</sup> Амир Темур ўғитлари. Т., 1992, 60-61 бетлар.

## **II bob. Temuriylar shajarasi.**

### **1-§. Amir Temurning xarami**

**Saroy Mulk xonim** Chigʻatoy ulusiga mansub boʻlgan moʻgʻul xonlaridan Qozonxonning qizi boʻlib, 1341 yilda tugʻilgan edi. Saroy Mulk xonim balogʻatga yetgach, 1355 yilda amir Husayn oʻz nikohiga kiritadi. 1370 yilda amir Husayn qatl qilingach, Amir Temur nikohiga kiradi. Zotan, sohibqiron Amir Temur mazkur Saroy Mulk xonim tufayli “Kuragon” unvoniga musharraf boʻladi. Kuragon iborasi moʻgʻulcha soʻz boʻlib, “kuyov” degan maʼnoni ifodalaydi. Saroy Mulk xonim xon avlodiga mansub boʻlgani tufayli haramdagi barcha malikalardan ulugʻ hisoblanib, “katta xonim” (Bibixonim) degan unvonga ega boʻldi<sup>7</sup>. Saroy Mulk xonim oʻz zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi boʻlgan. Shuningdek, husn-latofat bobida ham benazir boʻlgan. Amir Temur oʻzining ulugʻ bekasi Saroy Mulk xonimga atab 1399-1404 yillar mobaynida Samarqandda mashhur Bibixonim masjidini qurdirgan edi. Sohibqiro Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand koʻrmagan.

Amir Temurning xaramlaridan yana biri **Choʻlpon Mulk Ogʻo** begim boʻlib, Hojibek moʻgʻillarining qizi edi. U nihoyat darajada goʻzal edi. U sohibqironning 1391 va 1394 yillardagi harbiy yurishlarida birga yurgan. Ibn Arabshoxning taʼkidlashicha, goʻyo vafosizlik qilgani uchun Temur uni oʻzi boʻgʻib oʻldirgan deydi.

Temur xaramlaridan yaʼna biri **Dilshod Ogʻo** begim boʻlib, Sulton Uvays Shayx Hasan Jazoyiring qizi edi. U 776/1374 yilda Amir Temur nikohiga kiradi va 785/1383 yilda kasal boʻlib oʻladi. Undan farzand bor yoʻqligi noʻmalum.

Sohibqironing suyuqli xotinlaridan biri - **Tuman Ogʻo** begimdir. Tuman Ogo begim Saroy Mulk xonimning akasi amir Musoning qizidir. Xonimga jiyan oʻrnidadir. Tuman Ogʻo 1366 yilda tugʻilib, 1378 yilda 12 yoshida Amir Temurga nikoh qilingan. U xusnda tengi yoʻq boʻlgan. Uning sharifaga Samarqandda maxsus Bogʻi bihishitni barpo ettirgan. Temur vafotidan keyin Xalil Sulton 1406 yilda Shayx Nuriddin bilan boʻlgan jangda yengilib, Tuman Ogʻo begimni xotinlikka berishga majbur boʻladi. Shayx Nuriddin vafot etgach uni Xirotda olib keladilar.

---

<sup>1</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 54-55 бб.

Amir Temurning yana bir xotini **Tukal** xonimdir, Hizr Xo‘janing qizi edi. 800/1397 yilda sohibqiron Amir Temur Konigulda katta to‘y o‘tkazib, Tukal xonimni o‘z nikohiga kiritadi. Tukal xonim xaramda (xon qizi bo‘lgani tufayli) Saroy Mulk xonimdan keyingi o‘rinda turgan, ya'ni "kichik xonim" deb atalgan. 1397 yilda sohibqiron Tukal xonim sharafiga Samarqandda "Bog‘i dilkusho"ni barpo ettiradi.

Ibn arabshohning yozishicha, 1408 yilda Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk begim Tukal xonimni zaharlab o‘ldirgan.

Sohibqironing keyingi paytlarda olgan xotini **Ruh Parvar Og‘o** bo‘lib, amir Temurning xoz kanizlaridan edi. Rux, Parvar Og‘o ham yosh va go‘zal ayol bo‘lgan. Uning sohibqironidan farzandi bo‘lmagan.

Amir Temur vafotidan so‘ng Ruh, Parvar Og‘oni Amir Hamza Sulduz xotinlikka olgan. Amir Hamza Sulduz vafotidan keyin Ruh Parvar Og‘oni amir Ali Tarxon o‘z nikohiga oladi. Ali Tarxon vafotidan keyin Ruh, Parvar Og‘oni amir Hasan So‘fi o‘z haramiga olgan. Ruh, Parvar Og‘o 1423 vafot etgan<sup>8</sup>.

---

<sup>1</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 61-62 бб.

## 2-§. Amir Temur farzandlari.

**O'gi Begi Xonim** Amir Temurning katta qizidir. O'gi Begi Xonimning onasi Turshush Og'adir. Shuningdek, O'gi Begi Xonimning qaysi yilda tug'ilgani haqida aniq ma'lumot yo'q.

1382 yilda O'gi Begi Xonim to'satdan og'ir bedova kasalga uchraydi shu yil oxirida vafot etadi.

**Sulton Baxt begim** Amir Temurning ikkinchi qizidir. Sulton Baxt begimning onasi sohibqironning ikkinchi xotini O'ljaoy Turkon Og'o begim edi. U 1366 yildayoq vafot etganligi ma'lum. Sulton Baxt begimning tug'ilgan yilini 1360 -1366 yillar orlig'i deb taxmin qilish mumkin.<sup>9</sup>

### Muhammad Jahongir Mirzo

**Muhammad Jahongir Mirzo** Amir Temurning katta o'g'li bo'lib 1356 yil tug'ilgan, uning onasi Turmish Og'odir.

1373 yil yilda Jahongir Mirzo Xorazm shohi Husayn So'fining qizi Sevin bekani o'z nikohiga oladi.

1374 yil Jahongir Mirzo Ilyos Yasuriyning qizi Baxt Mulk Og'oga uylanadi. Undan tug'ilgan o'g'ilga Pir Muhammad Mirzo deb ism qo'yishadi. Ammo u 1376 yil 20 yoshida kasal bo'lib o'ladi.

**Muhammad Sulton Mirzo** Jahongir Mirzoning katta o'g'li. U 1376 yil Yusuf So'fining qizi Xonzodaga uylanadi. Amir Temur taxt vorisi deb bilgan uni. 1399 yil Temur jangga ketayotib Samarqand taxtini Muhammad Sulton Mirzo ishonib topshirib ketadi. Muhammad Sulton Mirzo bilan amakivachchasi Iskandar Mirzo bilan o'rtasida kelishmovchilik tufayli amakivachchasini qatl qildiradi.

1402 yilda Boyazid Yildiringa yurishda Temur farmoniga muvofiq ishtirok etadi va qishda qattiq kasal bo'lib o'ladi va uning jasadi Oqsharga jo'natiladi.

**Pir Muhammad Mirzo** Jahongir Mirzoning 2 o'g'li bo'lib Baxt Mulk Og'oning o'g'lidir. 1392 yilda bobosi Temur G'azna, Qobul, Zobiliston, Qandaxar joylarini topshiradi. U Temurning Hindiston yurishida Qo'sh qanot bo'lgan.

---

<sup>1</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 63-64 бб.

Bobosi vafotidan keyin Samarqand uchun voris edi, ammo Xalil Sulton taxtni egallab bo'lgan edi. U Shoxruh Mirzo bilan bitim to'zib Xalil Sultonga qarshi kurash uchun bitim to'zadi. 1406 yilda 2 o'rtada jang bo'ladi va Xalil Sulton g'olib bo'ladi. 1407 yilda Pir Muhammad Mirzoning vaziri amir Pir Ali Toz tomonidan bo'g'ib o'ldiriladi.

Pir Muhammad Mirzodan 7 o'g'il qoladi. Qaydu Mirzo, Bo'zanjir Mirzo, Holid Mirzo, Sa'd Vaqqos Mirzo, Qaysar Mirzo, Jahongir Mirzo, Sanjar Mirzo.

**Muhammad Jahongir Mirzo** Sulton Mirzoning katta o'g'lidir. Muhammad Jahongir Mirzoning nabirasi va u 1396 yilda tug'ilgan.

1409 yil Xalil Sulton taxtdan tushurilgach taxt Ulug'bek Mirzoga beriladi va unga Hisor hokimligi beriladi.

U umrining oxirigacha Hisorda hukmronlik qiladi va 1433 yil 38 yoshida vafot etadi. Uning Muhammad Sulton Mirzo va Xalil Sulton ismli o'g'illari qoladi.

**Muhammad Sulton Mirzo** 1423 yil tug'ilgan. U otasidan qolgan Hisor Shonmonda hayot kechiradi va 1448 yil vafot etadi. Undan farzand bor yo'qligi noma'lum.

**Sa'd Vaqqos Mirzo** Muhammad Sulton Mirzoning 2 o'g'li. Amir Temurning katta o'g'li Muhammad Jahongirning nabirasidir. U 803/1400 yilda tug'ilgan. U biron viloyatda hukmdor bo'lmagan.

**Yaxyo Mirzo** Muhammad Sulton Mirzoning 3 o'g'li. U haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U 1408 yilda 10 yoki 8 yoshida vafot etgan.

**Xalil Sulton Mirzo** Muhammad Jahongir Mirzoning 2 o'g'lidir. Halil Sulton Mirzo ham akasi kabi Hisor Shodmonda hayot kechirib, 1459 yilda vafot etadi. Halil Sulton Mirzodan bir o'g'il bir qiz qoladi.

**Muhammad Umar Mirzo** Xalil Sulton Mirzoning o'g'li bo'lib 1442 yilda tug'ilgan va Sulton Boyqaro huzurida mulozamatda bo'lgan.

U bir necha bor Boyqaroga isyon ko'taradi va bunda Boyqaro isyonni bartaraf etadi.

U 1471 yil Faroh, qo'rg'onini musodara qiladi va Muzaffar boshchiligida qo'shin jo'natadi va u ajal sharofini ichib vafot etadi.

**Qaydu Mirzo** Pir Muhammad Mirzo Qobuliyning to'ng'ich o'g'li bo'lib, Temurning o'g'li Jahongir Mirzoning nabirasidir. U 1396 yilda tug'ilgan. Afg'oniston yerlarini suyilgor tarzida boshqardi hamda otasiga mulozim xizmat qilgan. Unga nisbatan bir necha amirlar isyon ko'taradi. Maqsad ukasi Sanjar Mirzoni ko'tarish edi. Shu asnoda u o'z yerlarini mustahkamlab oldi va u yerlariga mustaqil ravishda hukmronlik qilish orzusi tushdi. Elchilik mulozamatlarida Shoxruh Mirzo bilan gapi qochadi va Qaydu Mirzoni ushlab 1417 yilda Xirotda barcha gunohlaridan kechadi va qoldiradi. 1418 yil Qandaxorga qochadi. Shoxruh Mirzo o'g'li bilan sipoxlarni jo'natadi va uni ushlab kelishadi. Shoxruh Mirzo uni Ixtiyoriddin qal'asida tashlaydi va shu yerda vafot etadi.

**Holid Mirzo** Pir Muhammad Mirzo Qobuliyning 2 o'g'li bo'lib 1399 yil tug'ilgan. U ham Shoxruh Mirzo mulozimatida bo'lgan. U 1427 yilda kasal bo'lib o'lgan.

**Qaysar Mirzo** Pir Muhammad Mirzo Qobuliyning 4 chi o'g'li bo'lgan. 1401 yilda tug'ilgan. U hiech qaerda hukmronlik qilmagan. U ham Shoxruh Mirzo huzurida ishlagan. 1424 yilda vafot etgan.

**Bo'zanjar Mirzo** Pir Muhammad Mirzo Qobuliyning 5-o'g'li bo'lib, 1402 yilda tug'ilgan. U hiech qaerda hukmronlik qilmagan. U ham Shoxruh Mirzo huzurida ishlagan. 1422 yilda vafot etgan.

**Jahongir Mirzo** Pir Muhammad Mirzo Qobuliyning 6-o'g'li bo'lib, 1402 yilda tug'ilgan. U ham hiech qaerda hukmronlik qilmagan. U ham Shoxruh Mirzo huzurida ishlagan. 1433 yilda vafot etgan.

**Sanjar Mirzo** Pir Muhammad Mirzo Qobuliyning 7-o'g'li bo'lib, 1403 yilda tug'ilgan. U akasi Qaydu Mirzo saroyida mulozamatda bo'lgan. U isyoni



kechirilib, Shoxruh Mirzo o'z huzurida olib qoladi. U umrining oxirigacha xoqon mulozamatida bo'lib, 1429 yilda Xirotda vafot etadi.<sup>10</sup>

### **Umar Shayx Mirzo**

**Umar Shayx Mirzo** Amir Temurning 2-o'g'li bo'lib 1356 yilda tug'ilgan. Umar Shayx Mirzoning onasi To'lin Og'odir.

Umar Shayx Mirzo harbiy ishlarga iqtidori yuksak bo'lib, mohir chavandoz va tolmas jangchi bo'lgan. Shu bois bo'lsa kerak, uning jangovarlik faoliyati haqida ko'pgina naql va rivoyatlar yozib qoldirilgan.

1370 yilda sohibqiron Amir Temurning Husayn ibn Musallabga qarshi olib borgan jangida 15 yoshli Umar Shayx Mirzo alohida jangovarlik namunasini ko'rsatgan. Shuningdek, u Farg'onada mo'g'ullarga qarshi ko'pgina janglarda ishtirok etadi. U o'zining mardligi bilan sohibqiron qo'shinida ustuvor sarkarda bo'lgan.

Umar Shayx Mirzo Sirjon qal'asini muhosara qilish ishini amir Idigu barlosga topshirib, o'zi Sherozga keladi. Sherozda ishonchli kishilardan amir Sanjaq huzuriga kelib, uni fors mamlakatlarini zabt qilish ishiga mutassadi qilib, so'ngra otasi sohibqironning huzuriga jo'naydi. Umar Shayx Mirzo Kurdistondan o'tib borayotganda, yo'l chekkasidagi Harmotu qal'asiga ko'zi tushadi. Qal'ani yaqinroqdan tomosha qilish niyatida bir tepalikka chiqib, qal'a tomon nazar tashlaydi. Shu payt qal'a ichidan otilgan nogahoniy o'q Mirzoning qulog'i tagidagi ko'k tomiriga kelib tegadi va Umar Shayx Mirzo shu zahotijon beradi.

Umar Shayx Mirzo jasadini avval Sherozga muvaqqad dafn qiladilar. Keyinchalik marhum Umar Shayx Mirzoning xotinlari Sevinch Qutlug' Og'o begim, Beka Mulk Og'o begim va Mulkat Og'o begimlar hamda hali voyaga yetmagan (sag'ir) o'g'li Iskandar Mirzolar jasadni Sherozdan Keshga (Shahrisabz) olib keladilar va temuriylar xonadoni uchun maxsus qurilgan daxmaga dafn qiladilar.

Marhum Umar Shayx Mirzodan olti o'g'il qoladi. Ularning kattasi Pir Muhammad Mirzo 16 yoshda edi. Undan keyingilari Rustam Mirzo, Iskandar Mirzo,

---

<sup>10</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 69-81 бб.

Ahmad Mirzo, Saidi Ahmad Mirzo va Boyqaro Mirzolar edi. Amir Temur Fors mamlakatining hukmdorligini 16 yoshli Pir Muhammad Mirzoga topshiradi.<sup>11</sup>

**Pir Muhammad Mirzo** Umar Shayx Mirzoning katta o'g'li bo'lib, 1379 yilda tug'ilgan. Otasi vafotidan so'ng fors xukmronligi unga topshiriladi. Sherozga xukmronlik qila boshlaydi.

1400 yilda Amir Temur Pir Muhammad Mirzoni harbiy yurishlariga chaqiradi. Pir Muhammad Mirzo o'zini kasallika solib bormaganligi sababli uni hokimlik vazifasidan chetlashtiradi. Faqat 1403 yilda Pir Muhammad Mirzoga Sherozni qaytarib beradi. Ukasi Iskandar Mirzo bilan Umar Mirzo qarshi urush olib boradilar va sulx asosida qutilib qoladilar.

Pir Muhammad Mirzo ukasi Iskandar Mirzoga Yazd viloyatini beradi. 1409 yilda Pir Muhammad Mirzo Xuziston mamlakatini zabt etadi.

Pir Muhammad Mirzo Sheroziyni Xoja Husayn Sharbatdor ismli amiri bor edi. Ana shu ko'mamak amir Xoja Xusayn bir necha yomon odamlar bilan til biriktirib, qorong'u tunda odil podshohzodaning chodiriga kirib, uni qatl qildiradi. Pir Muhammad Mirzo 31 yoshida halok bo'ladi. Undan 2 o'g'il qoladi: Kattasi Umar Shayx Mirzo, kichigi Solih Mirzolardir.

Umar Shayx Mirzo 1398 yilda tug'ilgan edi.

1408 yilda Pir Muhammad Mirzo Isfaxon viloyatining hokimligini Umar Shayx Mirzoga in'om qiladi. Umar Shayx Mirzo 1429 yilda 31 yoshida Xurosonda vafot etgan.

**Solih Mirzo** 1406 yilda tug'ilgan. U otasi o'limidan so'ng Shoxruh Mirzo saroyida xizmat qilgan. U Alouddavla Mirzo hamda Abdulatif Mirzo o'rtasida jangda Chechektudagi harbiy qo'shinga bosh edi. Abdulatif Chechekni mag'lubiyatga uchratgach u Xirotda qochadi va 1452 yilda 46 yoshida vafot etadi.

**Rustam Mirzo** Umar Shayx Mirzoning 2 o'g'lidir. U 1381 yilda tug'ilgan. 1403 yilda Temur unga Isfaxon hukmronligini beradi. Abubakr Mirzoga qarshi kurashda qo'shinlari qattiq shikastlanadi.

---

<sup>11</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995, 84-85 бб.

U o‘z beklaridan Sayd barlosni fitnasini payqagach uni ko‘zini ko‘r qilib qal'ada saqlar edi, ammo u uning bir ko‘zi ko‘rishi tufayli qochib Sheroz qal'asiga qochadi. Pir Muhammad uni o‘z himoyasiga oladi. Bundan xafa bo‘ladi va ukasi Iskandar bilan Pir Muhammadga qarshi qo‘shin tortadi. 1410 yilda aka-ukalar o‘rtasida muzokara chiqib jangda mag‘lub bo‘ladi va Qaro Yusuf turkman xuzuriga panoz izlab ketadi.

1412 yilda Rustam Mirzo Qaro Yusuf huzuridan qaytib Tabriz orqali Isfaxonga keladi. Uning amiri Xoja Ahmad kutib oladi. Rustam Mirzo Xoja Ahmadni o‘ldirtiradi. Shu voqyeadan so‘ng isfaxonliklarning Rustam Mirzodan ihlosi qaytadi. Ayni vaqtda Iskandar Mirzo Isfaxonga qo‘shin tortib kelayotgan edi va Rustam Mirzo yengilishni bilgach Xuroson tomonga ketadi.

1412 yil Shoxruh Mirzo yonida panoz topadi. Shu paytda Iskandar Mirzoni tutib Shohruh Mirzo huzuriga keltiradilar. Ukasiga tegishli yerlar Rustam Mirzoga o‘tadi hamda ukasi unga topgshiriladi. Rustam Mirzo uni ko‘ziga mil torttirib ko‘r qiladi.

1415 yilda Boyqaro Mirzoning qo‘shiniga bas kela olmasligini bilib ukasini qatl qildiradi. Boyqaro Mirzo qarshilik befoyda ekanligini bilib Shoxruh Mirzoga bosh egib keladi va uning yerlari Rustam Mirzoga o‘tadi. 1424 yil vafot etadi. Undan 2 o‘g‘il qoladi. Usmon Ali Mirzo, Sulton Ali Mirzo.

**Iskandar Mirzo** Umar Shayx Mirzoning 3 o‘g‘lidir. U 1384 yilda tug‘ilgan. Onasi Mulkat Og‘o begim edi.

1403 yilda Amir Temur Iskandar Mirzoni Hamadon viloyatiga hokim qilib tayinlagan edi.

1407 yilda Pir Muhammad ukasini Iskandar Mirzoni qamoqqa oladi va Yazd viloyatidagi barcha xazinalarni Sherozga keltiradi. Iskandar Mirzoni qo‘loyog‘ini bog‘lab, Hirot dorissaltanasiga yuboradi. Biroq, u yo‘lda qochdi va Rustam Mirzo bilan birlashdi. 1409 yilda ularni ikkalasini ham Pir Muhammad mag‘lubiyatga uchratadi. U Xuroson sari qochadi.

Keyinchalik Andxo‘y atrofiga keladi va u yerning hokimi Sayyid Ahmad uni Andxo‘ydagi ekanligini Shoxruh Mirzoga maktub orqali bildiradi. 1410 yilda akasi Pir Muhammad yoniga qaytadi va akasi o‘ldirilgandan keyin uning o‘rniga taxtga o‘tirdi.

1411 yilda u Kermon viloyatiga karab yo‘l oldi va sulh tuzulib Sherozga qaytadi. 1412 yilda esa Iskandar Mirzo Qum viloyatiga qarab yo‘l oladi va shu asnoda mag‘lubiyatga uchrab poytaxtni Isfanxonga ko‘chiradi.

Iskandar Mirzoning **Pir Ali Mirzo** degan o‘g‘li bo‘lgan. U 1400 yilda tug‘ilib, otasining vafotidan keyin 1415 yilda olamdan o‘tadi.<sup>12</sup>

**Ahmad Mirzo** Umar Shayx Mirzoning 4 o‘g‘lidir. U 1388 yilda tug‘ilgan. U 1404 yilda Temurning Xitoyga yurishida o‘ng qo‘li bo‘lgan. Temur vafotidan keyin u Shohruh Mirzo xizmatida bo‘ldi. 1409 yilda Hisor viloyatini bo‘ysuntirish uchun jo‘natadi. Shu yildan e‘tiboran Farg‘ona hukmronligini oladi. Urushlardan so‘ng u 1416 yil Hirotga qaytib keladi. Uni qamalda ushlaydilar. U Ka‘batulla ziyoratiga yo‘l oladi va qaytib kelmaydi, 1425 yilda o‘sha yerda vafot etadi.

**Saydi Ahmad Mirzo** amirzoda Umar Shayx Mirzoning 5 o‘g‘lidir. U 1391 yilda tug‘ilgan. Otasi vafotidan so‘ng Shohruh, Mirzo mulozamatida bo‘lgan. Unga Shibirg‘on viloyatini suyurg‘ol qilib bergan. U 1429 yilda vafot etadi. Uning Ahmad Mirzo va Usmon Mirzo degan o‘g‘li bo‘lgan.

**Boyqaro Mirzo** Umar Shayx Mirzoning 6 o‘g‘lidir. U 1393 yilda tug‘ilgan. Uning onasi Mulkat og‘o begimdir. Otasi vafot qilganda u endigina 1 yoshda edi. Amir TUmur vafotidan so‘ng u Shohruh, Mirzo huzurida mulazamatda bo‘ladi.

1414 yilda Shohruh Mirzo Hamadon hukumatini, Vuruja va Nehovand qal‘alari hamda butun Luristonni suyurg‘ol qilib beradi. U 1415 yilda Sherozga yuradi. Uni amirlar hamda qozilar kutib oladi va darvozani ochib beradilar.

1423 yil uni Samarqandga Ulug‘bek huzuriga jo‘natadilar va Ulug‘bek Mirzo farmoniga ko‘ra uni qatl qiladilar. Undan 3 o‘g‘il qoladi - Muzaffar Mirzo, Muhammad Mirzo, G‘iyosiddin Mansur Mirzolaridir.

### **Mironshoh Mirzo**

**Mironshoh Mirzo** Amir Temurning 3 o‘g‘li bo‘lib, 1366 yil tug‘ilgan. U Temurning Xurosonga yurishlarida 14 yoshidanoq ishtirok etgan. Xarbiy kuchni yaxshi

---

<sup>12</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995, 93-94 бб.

egallagan. 1393 yil Temur Shimoliy Eron, Iroq va Zakavkaziyani Mironshoxga topshiradi.

**Abubakr Mirzo** 1382 yil Mironshohning mo'g'ul xotinidan tug'ilgan. Temur uni otasini o'rniga taxtga o'tqazganda unga tegishli yerlar ko'payadi. Ukasi unga nisbatan dushmanlik ruhida qaraydi va akasini 1405 yilda Umar Mirzo tomonidan qal'aga qamatadi va tegishli boylik va xaramlarini oladi.

Keyinchalik Sultoniyani qo'lga kiritgach Umar Mirzoga tegishli beklar tomonga o'tadi. 1408 yilda Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda yengiladi.

**Umar Mirzo** Mironshoh Mirzoning 2 o'g'lidir. U 1383 yilda tug'ilgan. Xurosonda Shoxruh Mirzo mulozamatida bo'ladi. 1407 yilda vafot etadi.

**Xalil Sulton Mirzo** Mironshoh Mirzoning 3 o'g'lidir. U 1384 yilda tug'ilgan. U yoshligidan Saroy Mulk Xonimni tarbiyasida bo'lgan. U juda shijoatli bo'lgan, bobosining Hindistonga yurishida 15 yoshidan ishtirok etgan. U Temurning 1399-1404 yilgi 7 yillik urushlarida faol qatnashadi va 1402 yilda Turkiston chegaralarini qo'mondonligini topshirgan edi. 1405 yilda Temur vafot etgach u o'z qo'shinlari bilan Samaqand taxtini egallaydi. U 1411 yil vafot etadi. Undan bir o'g'il qoladi.

**Iyjal Mirzo** Mironshoh Mirzoning 4 o'g'lidir. U 1387 yilda tug'ilgan. 1415 yil aprel oyining boshida qandaydir kasalga uchrab, uch kun yotib, 11 aprel 1415 yilda Ray shaharida vafot etadi.

**Suyurg'atmish Mirzo** Mironshoh Mirzoning 5 o'g'lidir. U 1399 yilda tug'ilgan. U biron viloyatga hukmronlik kilmasdan 1411 yil vafot etgan.

**Sulton Muhammad Mirzo** Mironshoh, Mirzoning 6 o'g'lidir. Uni qachon to'g'ilib va qachon vafot etgani noma'lum. U haqida faqatgina Bobur Mirzoning mashhur "Boburnoma" asarida to'xtaladi. Lekin Shohruh Mirzo hayotlik davrida tuzilgan "Nasabnoma"da Mironshoh Mirzoning Sulton Muhammad Mirzo nomli o'g'li bo'lganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Unga ko'ra undan bir o'g'il qolganligi aytiladi.

**Shohrux Mirzo** Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib u 1377 yil tug'ilgan. Uning onasi Tag'oy Turkon Og'odir. U yoshligidann Saroy Mulk Xonim

tarbiyasida bo'lgan. U 20 yoshida otasining Falastin yurishida qatnashadi. 1397 yilda unga Xuroson, Seyston va Mozandaron hokimligi topshiriladi.

U yoshligidan shariatga kattiq rioya qilgan. Shuning uchun Temur uni valiaxt qilishni xush ko'rmagan edi. Temur vafotidan keyin taxtga davogar bo'ladi va Pir Muhammad bilan sulh tuzib Xalil Sultonga yurish qilgan edi. Pir Muhammad vafotidan so'ng o'zi kurasha boshlaydi. 1409 yilga kelib Samarqandni oladi va o'g'illariga hududlarni bo'lib berib, o'zi Hirotga qaytadi. Uning davrida mamlakat bir muncha gullaydi va poytaxtni Hirotga ko'chiradi. U ko'pincha davlat ishlarini xotini Gavharshod bilan boshqarar edi.

Ancha qarib qolgandan keyin taxt vorisini tayinlay olmay qoldi, xotiniga esa nabirasi Alouddavla Mirzoni mo'ljallagan edi. U o'z ajali bilan 1447 yilda vafot etadi.

**Ulug'bek Mirzo** Shoxruh Mirzoning to'ng'ich o'g'lidir. U 1394 yilda tug'ilgan. Unga Muhammad Tarag'ay deb ism beradilar. Keyinchalik o'zgarib ketadi. 1398 yilda besh yoshli Ulug'bekni otasi uni Sharafiddin Ali Yazdiyning tarbiyasiga topshiradi. U yoshligidan kitob o'qishga qiziqqan.

1404 yil 10 yoshda bo'lganida unga Og'o Begimni unashtirish marosimi bo'lib o'tadi. 1404 yilning kuzida Temur Xitoy yurishida Sayram, Avliyo ota, Ashpardan to Xitoy chegarasigacha Ulug'bekka in'om qiladi. Ammo Temur 1405 yilda vafot etadi. 1409 yilda Ulug'bek Movarounnahr hukmdori bo'lgach otasining ham yurishlarida ishtirok etmay qo'yadi. 1413 yil Ahmad Mirzo taklifga binoan kelmaganligi uchun Farg'onaga qo'shin tortadi va g'alaba kozonadi. 1425 yilda Mo'g'ulistonga qarshi yurish boshlaydi. U bu jangda ham g'alaba qozondi. 1426 yilda esa Baroq o'g'longa qarshi kurashadi va yengilib Samarqandga qaytadi. 1447 yil vafot etdi.

**Ibrohim Mirzo** Shohruh Mirzoning 2 o'g'lidir. U 1394 yilda tug'ilgan. Uning onasi To'ti begim edi. Shohruh Mirzo 1409 yilda Xalil Sulton Mirzodan Movarounnahrni tortib olgach, unga Balx viloyati hokimligini topshiradi. U tabiatan muloyim ochiq ko'ngil edi. Sharafiddin Ali Yazdiy ham o'z "Zafarnoma"sini uning huzurida bir qancha vakt yozadi va asarda to'xtalib o'tadi.

Ibroxim Mirzo 1435 yil 40 yoshida kasal bo'lib vafot etadi. Undan uch o'g'il koladi. Sulton Abu Isxoq Mirzo, Ismoil Mirzo, Abdullo Mirzolar edi.

**Boysung'ur Mirzo** Shohruh Mirzoning 3 o'g'lidir. U 1397 yilda tug'ilgan. U tabiatan o'qimishli odam edi. 1414-1416 yilgacha Mozandaron, Astrobod va Jurjon viloyatlarida hokimlik qiladi.

1416-1420 yilgacha Hirotda otasiga vazirlik qiladi. Vazirlik paytida Hirotda kutubxona tashkil qiladi. 1431 yilda otasi unga Astrobod hokimligini topshiradi. Keyingi davrlarda kasallikka chalinib 1433 yilda vafot etadi. Undan uch o'g'il qoladi, Alouddavla Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo va Sulton Muhammad Mirzolaridir.

**Suyurg'atmish Mirzo** Shohruh Mirzoning 4 o'g'lidir. U 1398 yilda tug'ilgan. Onasi Mulkat Og'o begimdir. U yoshlik davrini otasining hashamatli saroyida o'tqazadi. U avval otasi saroyida xizmat qiladi keyinchalik esa 1418 yilda Qobul hukmdorligini oladi.

Biroq 1426 yil u to'satdan og'rib, vafot etadi. Undan 2 o'g'il qoladi, Ma'sud Mirzo va Qorachar Mirzolaridir.

**Muhammad Juki Mirzo** Shohruh Mirzoning 5 o'g'lidir. U 1403 yilda Hirotda tug'ilgan. Onasi Gavharshod begim edi. U yoshligidan kasalmand va nimjon bo'lib o'sdi. 1419 yilda unga Mo'g'uliston sobiq xoni marhum Sham'i Jahonning qizi Mehr Nigor Og'oni nikoh qiladilar. U Baroq O'g'longa qarshi yurishida ishtirok etadi. 1433 yilda Shohruh Mirzo o'g'li Muhammad Jukiga Garmser va afg'onlar viloyatini topshiradi. 1443 yilda esa Muhammad Juki Balx viloyatini hokimi etib tayinlanadi. 1445 yilda 45 yoshida vafot etadi. Undan uch o'g'il qoladi, Ali Mirzo, Muhammad Qosim Mirzo va Abubakr Mirzolaridir.<sup>13</sup>

---

<sup>13</sup> Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент, 1995. 295-337 бб.

## XULOSA

Amir Temur saltanati tarixiy zarurat edi. Ijtimoiy hayot, xalqlarning hayoti tarzi shunday buyuk bir shaxsning dunyoga kelishini kutar edi. Turon, binobarin, Mavorounnahr, Eron, Ozarbayjon, Xuroson mo'g'ullar oyog'i ostida ingrar, najot istar edi. Shunday najot farishtasi Temur bo'ldi. U tarix sahnasiga chiqib, Turon zaminini mo'g'ullardan tozaladi.

Amir Temur davrida madaniyat, san'at, ilm fan gurkirab o'sdi va rivojlandi. Jahongir qaerga bormasin o'sha yerdan eng qo'li gul ustalarni, hunarmand va san'atkorlarni, shoiru olimlarni ozor yetkazmay olib keldi, ularni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Uning davrida Samarqand yer yuzining sayqaliga, Buxoro islom dinining quvvatiga aylandi. Turon yurti o'z madaniy taraqqiyoti bilan jahonning ko'zini qamashtirdi.

Kurs ishida Sohibqiron Amir Temur Kuragoniyning faoliyati va janglari, uning hokimiyat tepasiga kelishi, Amir Temur davlatining tashkil topishi, temuriylar shajarasi, Amir Temurning harami haqida, Amir Temur farzandlari, Jahongir Mirzo va uning avlodi haqida, Mironshoh Mirzo va uning avlodi haqida, Umar Shayx Mirzo uning avlodi haqida, Shohruh Mirzo uning avlodi haqida qisman bo'lsada ma'lumotlar berildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, temuriylar shajarasi ustida ish olib borgan olimlar, o'z asarlarida faqat taxtga o'tirib hukmronlik qilgan shahzodalarnigina e'tiborga olib, hukmronlik qilmagan yoki kichikroq lovazimlarda bo'lgan shahzodalarni esa shajara ro'yxatiga kiritmaganlar. Turg'un Fayzievning "Temuriylar shajarasi" kitobida ushbu sulolaga mansub bo'lgan barcha shahzodalarni shajara ro'yxatiga kiritilgan. Zero sulola tarixini o'rganishda ularni chetlab o'tish mumkin emas.



*Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.*

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida so‘z. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996.
2. S.Siddiqov, A.Axmedov, B.Axmedov va boshqalar. “Amir Temur Jahon tarixida” Toshkent. “Sharq”-2001y.
3. Boboev Halimboy. Amir Temur va temuriylar saltanati. Toshkent, “Kamalak” 1996.
4. Yakubovskiy A. Temur. Voprosy istorii. 1946.
5. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni va roli haqida. Toshkent, 1960.
6. Temur tuzuklari. Toshkent, 1991.
7. Amir Temur o‘g‘itlari. Toshkent, 1992.
8. Fayziev T. Temuriylar shajarasi. Toshkent, 1995.